

ANGOR TUMAN SHAROTIDA PISTA (PISTACIA VERA. L) NING PERODUKTIV BIOLOGIYASI

Ergasheva Lobar Xudoyshukurovna

Termiz davlat universiteti.

Magistratura bo'limi.

Botanika kafedrası.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11034364>

Annotatsiya. Maqolada, hozirgi kunda O'zbekistonda ko'paytirilishi qiyin bo'lgan noyob mevali o'simliklardan pistani ko'paytirish, uni hosilga kirish mudadti qisqartirish, mahsuldorligini oshirish haqida bayon etiladi. Bundan tashqari pistaning kemiruvchi zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralarini haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: pista, tuproq unumdorligi, hosildorligini oshirish, quritilgan mevalar, kemiruvchi zararkunandalar, biologik kurash, kimyoviy kurash.

PERODUCTIVE BIOLOGY OF PISTACHIO (PISTACIA VERA. L) IN ANGOR DISTRICT

Abstract. The article describes how to breed pistachios from rare fruit plants that are difficult to reproduce in Uzbekistan today, how to reduce the period of its entry into the harvest, and how to increase its productivity. In addition, information about pistachio rodent pests and their control measures is provided.

Key words: pistachio, soil fertility, productivity improvement, dried fruits, rodent pests, biological control, chemical control.

ПРОДУКТИВНАЯ БИОЛОГИЯ ФИСТАШКИ (PISTACIA VERA. L) АНГОРСКОГО РАЙОНА

Аннотация. В статье описано, как вывести фисташку из редких плодовых растений, трудно размножаемых в Узбекистане, как сократить сроки ее вступления в урожай и как повысить ее продуктивность. Кроме того, представлена информация о вредителях фисташек и мерах борьбы с ними.

Ключевые слова: фисташка, плодородие почвы, повышение продуктивности, сухофрукты, грызуны-вредители, биологический контроль, химический контроль.

Respublikamizda mevachilikni jadal rivojlantirish, tuproq unumdorligini ko'tarish, meva ekinlari hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ulardan qayta ishlash sanoatida tayyorlanadigan mahsulotlarni ko'paytirishga, xalqimizning mevaga bo'lgan talabini to'la qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonning 3.3.-bandi "paxta va boshqaliq don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish...." muhim strategik vazifalardan qilib belgilandi.

Hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish hamda meva-sabzavot ekinlarini yetishtirishni uzluksiz zanjirni shakllantirishni ko'zda tutuvchi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab

chiqarishni tashkil etishning klaster usulini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva- sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388-son farmoni soha rivojida muhim o'rin tutmoqda.

Mamlakatimiz aholisini yong'oqmevali mahsulotlar bilan ta'minlash qishloq xo'jaligi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini uzluksiz qondirish borasida yil sayin yetishtirilayotgan mahsulotning hajmi va sifatini oshirib borish zarur.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda aholi jon boshiga kuniga kamida 330-400 g yoki yiliga 115-120 kg meva, shundan 15 kg uzum va 10 kg rezavor-meva yetishtirilishi kerak. O'zbekiston tibbiyot olimlari respublika aholisining uzum iste'mol qilish normasini 25 kg ga oshirishni va bunga qo'shimcha yana 10-11 kg quritilgan mevalar iste'mol qilishni tavsiya qiladi.

O'rta Osiyo respublikalarida dunyodagi eng yirik yovvoyi pistazorlar joylashgan. Ularning maydoni qariyb 300 ming gektarni tashkil etadi. Pistazorlar bilan qoplangan maydonlarning 42% Tojikistonda, 33% Qirg'izistonda, 15% Turkmanistonda va 10% O'zbekistonda joylashgan.

Xandon pistaning butun areali shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon to'rt tog' tizmasi (Tyan-Shan, Pomir-Oloy, Paropamiz va Turkman-Xuroson tog'lari) hududida joylashgan.

Arealning shimoli-g'arbiy chegarasi markaziy Tyan-Shanda Issiqko'l yaqinida joylashgan bo'lib, shimoliy qismi Qirg'iziston tog' tizmasining janubiy tog' yonbag'ridan o'tadi. Arealning janubiy chegarasi Afg'oniston hududidan, Hindikush tog'larining shimoliy tarmoqlari, Paropamiz, Hirotdan biroz janubda o'tadi; janubi-g'arbiy qismi – Eron, Xuroson tog' yonbag'irlarida, g'arbiy qismi – g'arbiy Kopetdog'da, Sumbar va Chandir daryolari oralig'ida joylashgan, janubi-g'arbiy qismi esa Pomir- Oloy tizmasining Vanch tog' tarmog'igacha yetadi.

O'zbekiston hududida xandon pista Farg'ona vodiysini o'rab olgan tog' tizmalarida: Chotqol, Qurama, Farg'ona tog' tizmalarida, undan so'ng O'zbekistonning janubiy tizmalari: Karjantov, Pskem, Ugom- Chotqol tog' tizmalari va nihoyat, eng g'arbiy nuqtasi Tyan-Shan – Nurota va Pistalitovda uchraydi. O'zbekiston janubida – Kuhitangtov va Bobotog' tog' tizmalarida pistazorlar mavjud.

"Dunyo bo'yicha hozirgi kunda xandon pista yetishtiriladigan umumiy maydon 0,82 mln gektarni tashkil yetadi. So'nggi yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda Dunyo bo'yicha 915717 tonna pista hosili oligan bo'sa shundan: AQSh 523900 tonnani, Eronda 135000 tonna, Turkiyada esa 119355 tonnani tashkil qilgan. O'zbekistonda 2021 yilda bu ko'rsatkich 400 tonnani tashkil yetgan". Bugungi kunda mazkur davlatlarda yetishtiriladigan xandon pista hosilining miqdoriga zararkunanda hashoratlarning ham salbiy ta'siri oshib bormoqda. Zararning oldini olishda zararli hashoratlarning tarqalishi va rivojlanishi aniqlash, iqtisodiy zarar miqdor mezoniga asoslangan holda kurash usullarini olib borish zarur.

Yong'oqmevali daraxtlarni zararkunandalardan himoya qilishda o'g'itlash va sug'orish ishlarini o'z vaqtida sifatli o'tkazish, agrotexnik va biologik va kimyoviy kurash tadbirlariga tayangan holda parvarish qilishni amalga oshirish zarur. Yong'oqmevali daraxtlardan yuqori hosil olish uchun yuqori agrotexnika qoidalari asosida parvarish qilish bilan bir qatorda erta bahordan o'simlikka va uning hosiliga zarar keltiruvchi turli xil zararkunanda hashorotlarning tarqalish areali, tur tarkibini, zararlanish davri va zarar keltirish darajasini bioekologiyasi chuqur o'rganib ularga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash choralari majmuini takomillashtirib borish

talab etiladi. Keyingi vaqtlarda yong‘oqmevali va boshqa ekinlarga zarar yetkazuvchi hasharotlarning ko‘payishi va tarqalishi uchun qulay bo‘lganligi sababli turli xil zararkunanda hasharotlar zarari yildan-yilga oshib borayotganligi kuzatilmoqda.

Pistazorlardan sifatli va yuqori sifatli hosil olishda ularda uchraydigan kasallik va zararkunandalardan asrash muhim bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatimiz iqlim sharoitida yuqoridagi zararkunandalarning tarqalish areali, tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari, zarar keltirish davri, zararlanish darajasi, iqtisodiy zararlash miqdor mezonini aniqlangan holda entomofaglardan foydalanib, ekologik xavfsiz va atrof muhitga salbiy ta‘sir qilmaydigan, yuqori biologik va iqtisodiy samara beradigan ilmiy asoslangan uyg‘unlashgan kurash tizimini ishlab chiqish va amalda tadbir qilish hozirgi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Pista daraxtlarini barg, tana va meva zararkunandalardan asosan qipcha tanali pista tilla qo‘ng‘izi (*Agrilus schisehyeri* ninni Sem.), Pista daraxtining qovurg‘ali tilla qo‘ng‘izi (*Capnodis parumstriata* ball), pista bargxo‘ri (*Labidostomis stenostomci* Ws.), Hisor pista bargxo‘ri (*Luperus hissaricus* Oglob.), pista urug‘xo‘ri yoki pista yo‘g‘onoyog‘i (*Yeurytoma plotnirovi* Nik), pista po‘stloqxo‘ri (*Chaloptelius vestitus* Rey.) kabi zararkunandalar kuchli zarar yetkazadi.

Avvalo hamma yuqumli manbalarini yo‘qotish, daraxtlarning chirishiga sabab bo‘ladigan buqoqlarni yo‘qotib, buqoqlar qirqilgan joyga dezinfeksiyalovchi modda surkash yoki ularni iyul oyigacha to‘plash va kuydirish kerak; Mevalar to‘kilgan vaqtdan boshlab to kelgusi yil mart oyigacha to‘kilgan mevalarni, barglarni yo‘qotish shuningdek hosil pishgandan so‘ng daraxtda to‘kilmay qolgan pistalarni terib olish kerak.

Biologik kurash. Pista daraxtlari zararkunandalariga qarshi may va iyun oylarida mikrobiopreparatlarni qo‘llanilganda yuqori samadorlikka erishiladi.

Kimyoviy kurash. Pistazorlarda hosil yig‘ib olingan so‘ng va erta baxorda o‘simlik gullagunga qadar zararkunandalarga qarshi insektisidlar bilan ishlov berish.

Shu jihatdan, pistazorlarda uchraydigan zararkunandalarning dominant turlarni aniqlash, oziqlanish statsiyalarini o‘rganish, tabiiy entomofaglarning tur tarkibi, zararkunandalar sonini kamaytirish, zararkunandalarga qarshi istiqbolli kimyoviy vositalarni aniqlash va ularni qo‘llash asosida yong‘oqmevali daraxtlarda uchraydigan zararkunandalarga qarshi kurashda biologik va iqtisodiy samaradorligi o‘rganish asosida ilmiy asoslangan himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish talab etiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/3107036>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2030 yillarda O‘zR qishloq xo‘jaligini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli farmoni. 28.01.2020 yil.
3. Юсупов А.Х., Холиқов Ш.А. pista зараркунандаларини тарқалиши, зарари ва ҳаёт кечириш тарзи, 677-б.
4. Sulaymonov OA, Madiev AJ. EFFECTIVENESS OF THE CHRYSOPIDAE ENTOMOPHAGY AGAINST APHID SUPERFAMILY (APHIDIDAE) ON APPLE TREES. Academic research in educational sciences. 2022;3(Special Issue 1):134- 7.

5. Mashrabov MI, Makhmatmurodov AU, Kadirova GA. THE CHANGING OF PHOSPHATE REGIME OF SOILS WITH CARBONMAGNESIA SALTING UNDER THE INFLUENCE OF NEW COMPLEX FERTILIZERS AT COTTON CULTIVATION. Academic research in educational sciences. 2022;3(Special Issue 1):64-74.
6. OA Po'latov, SEO Negmatov, MSQ Xotamova - SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA YONG'OQNING SO'RUVCHI ZARARKUNANDALARIGA QARSHI KIMYOVIY KURASH Academic research in educational sciences, 2023
7. Махматмуродов А, Пўлатов О, Содиков Э. БОДОМНИНГ СЎРУВЧИ ЗАРАРКУНАНДАСИ ОДДИЙ ЎРГИМЧАККАНА (TETRANYCHUS URTICAE KOCH.) ВА УНГА ҚАРШИ КИМЁВИЙ ПРЕПАРАТЛАРНИ БИОЛОГИК САМАРАДОРЛИГИ. Development and innovations in science. 2023 Oct 27;2(10):108-13.
8. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference.
9. Международный научный журнал PISTA BIOLOGIYASI VA MORFOLOGIYASI AREALI TURLI TUPROQ IQLIM SHAROITLARIGA MOSLASHUVCHANLIGI